

ILTIFOTNI IFODALOVCHI NUTQ AKTLARINI O'QITISH USULLARI

Sadikov Erkin Tursunovich,
Buxoro Davlat Universiteti tadqiqotchisi
Telefon: +998936510730
Email: sadikoverkin87@gmail.com

Annotatsiya. Ijtimoiy-lingvistik kompetensiya, suhbatni qanday boshlash va yakunlash, qanday va qachon xushmuomala bo'lish, odamlarga qay tariqa murojaat qilish kabi ijtimoiy-normativ bilimlar ham ahamiyatli hisoblanadi. Shu bilan birga, muloqot jarayonida o'zini qanday tutish, suhbatni samarali rivojlantirish, tushunmovchiliklardan qochish, ziddiyatlarning oldini olish, ma'lum bir holatlarda kompensatsiya qilish qobiliyatlari ham suhbatdoshlar uchun dolzarbdir.

Kalit so'zlar: sinfda joylashuv, muloqot, pragmatika, nutq aktlari, inkorni ifodalovchi nutq aktlari, kommunikativ kompetensiya, tilshunoslik.

Mashg'ulotlar davomida o'qituvchi o'quvchilarga nutq aktlarini o'rgatish barobarida ularning shaxsiyatlaridan ham kelib chiqishi kerak. Zero, o'quvchilarning shaxsiyati ularning sinf sharoitida boshqalar bilan muloqot qilishlari uchun ahamiyatli. O'quvchilarni faollashtirish, mashg'ulotlarda til muhitini hosil qilish, real hayotiy vaziyatlarga oid rolli ijrolardan foydalanish naqdadar muhim bo'lsa, ularning sinfxonadagi joylashuvi – o'tirishlari ham shunchalik dolzarbdir. Odatta, ta'lim jarayonida parta va stullarning joylashuvi uch xil standart asosida amalga oshiriladi¹.

1) An'anaviy joylashuv uslubi

Mazkur holatda o'quvchilar uchta yoki ikkita qatorda o'zaro jufliklarda o'rinn egallashadi.

Nutq aktlarini sinf sharotida o'qitish jarayonida ushbu joylashuv uslubining ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Xususan, bu turdagи joylashuvda o'quvchilar o'z partadosh – sheriklari bilan aksariyat hollarda fikr almashadilar, interaktiv muloqotga kirishadilar. Ammo nutq aktlarini bir-birlariga qo'llashlari nuqtai nazaridan cheklovga duch kelishadi, deyarli har safar o'z partadoshlari bilan kommunikatsion dialogni vujudga keltirishadi; natijada rangba-ranglik, yangicha nutq shakllarini ifodalash imkoniyati bo'lmaydi.

2) "U" harfi shaklidagi joylashuv uslubi

Ushbu joylashuv uslubi o'quvchilarga bir-birlarini to'liq ko'rib turish yoki kuzatish imkonini beradi. Nutq aktlaridan foydalanar ekanlar, o'quvchilar muloqot va interaktiv jarayonlarida suhbatdoshlarining ko'z va yuz emotsiyalarini yaqqol ko'ra oladilar. Shu tariqa, masalan, qo'llanilayotgan iltifot, shikoyat yoki boshqa nutq aktlarining effektivligi, ya'ni ta'sirchanlik xususiyatini his qila oladilar.

Shu bilan birga, "U" shaklidagi joylashuvining salbiy tomonlaridan biri, sotsial, ya'ni kirishimli bo'limgan o'quvchilarning jarayonda faol bo'lmasliklari mumkin. Introvert (ijtimoiylashuvga moyil

¹ Clark, Herbert H., 1996, Using Language. Cambridge: Cambridge University Press.

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

bo'limgan) o'quvchilar tabiatan muloqot mobaynida aktiv bo'limganliklari tufayli ularni jarayonga jalg qilish, interaktiv mashg'ulotlarda sinab ko'rish imkoniyatini juda pasaytirib yuborishi mumkin.

3) Uchburchak yoki kvadrat shakldagi joylashuvda to'rt nafar o'quvchining o'rinni olishi bilan bog'liq joylashuvning bu turi odatda, sinfda 12,16,20 nafar o'quvchi bo'lgan sharoitda qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Har bir kvartet nutq aktlarini o'zaro muloqotda ishlatadi, natijada rangba-ranglik, nutqiy, ijtimoiy kommunikatsion holat yaraladi. O'quvchilar o'z kvartetlaridagi sheriklarining hissiy-emotsional holatlarini kuzatib borishadi, muloqotning keyingi bosqichlarda rivojlanishini nazora qila olishadi.

Biroq bu turdag'i joylashuv ko'pgina holatlarda ijtimoiy shovqinni, lisoniy tartibsizlik (o'quvchilarning qo'llayotgan so'zlari va gaplarining nutq aktlari mezonlariga nomuvofiq shaklda ifoda etilishi)ni ham keltirib chiqarishi mumkin. Mazkur vaziyatlarda o'qituvchi ham faol bo'lishi, har bir kvartetni nazorat qilishga, tinglashga va albatta, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatishga yoki muayyan bosqichlarda izoh hamda tavsiyalar berib borishga moyil bo'lishi talab qilinadi. Sirasini aytganda, nutq aktlarini sinf sharoitida o'qitish nafaqat o'qituvchi – o'quvchi munosabatlarining mushtarakligiga, balki sinf sharoiti, joylashuv uslublariga ham bog'liqdir.

Iltifot halqlari

Bu turdag'i usullar o'quvchilarning iltifotni qay tarzda qabul qilishlari va qo'llanmalarini o'rganishlari hamda qo'llashlarini o'rganishlari uchun juda muhimdir.² Mazkur holatda har bir o'quvchi o'zining sinfdoshiga kompliment qilishi, shu bilan birga, boshqa bir o'quvchidan iltifotni qabul qilib olishi mumkin bo'ladi.

Kompliment halqalarini hosil qilish uchun o'quvchilar va o'qituvchi aylana/doira shaklida xona o'rtaida turib olishadi. Doira ichidagi o'quvchilardan biri jarayonni boshlab berishi kerak.

Deylik, Zarnigor sinfdoshi Azizaning ismini baland ovozda aytib, unga iltifot qiladi. Komplimentni qabul qilib oladigan o'quvchi – Aziza komplimentor – Zarnigorga minnatdorchilik bildiradi hamda halqadan chiqadi. Shu tariqa o'quvchilar kompliment qilish mumkin bo'lgan halqadagi boshqalar bilan interaktivni davom ettirishadi. Birin-ketin sheriklaridan iltifotni qabul qilib olgan o'quvchilar komplimentlarga minnatdorchilik bildirgan holda doirani tark eta boshlaydilar.

"Kompliment halqlari" metodini sinf sharoitida quyidagi yo'riqnomaga asosida qo'llash mumkin:

Birinchi navbatda, o'quvchilarga kompliment haqida tushuncha beriladi, ularni qo'llash bilan bog'liq vaziyatlar borasida to'xtalinadi. Masalan, o'quvchilarga iltifotning samimiyo bo'lishi, o'zaro xayrixohlik natijasida ijtimoiy lashuv jarayonida ijobiy ahamiyat kasb etishi yuzasidan ma'lumotlar taqdim etiladi. Albatta, o'qituvchining vazifasi jarayonning naqadar nozik ekanligini, bir-birlarining tuyg'ulariga ozor bermaslik shartligini o'quvchilar ongiga singdirish hisoblanadi.

Ikkinchidan, "Kompliment halqlari"ni tashkil etayotganda ushbu qoidalar muhim:

1. Baland ovozda gapirish.
2. Kompliment qilinayotgan kishining ismini aytib chiqarish.
3. Suhbatdoshning ko'ziga qarash.
4. O'zaro hurmat saqlash.

² Clark, Herbert, H., 2003, "Pointing and placing," in S. Kita (ed.), Pointing: Where language, culture, and cognition meet, Hillsdale NJ: Erlbaum, pp. 243–268.

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

5. Samimiy va muloyim bo'lish.
6. Minnatdorchilikni izhor etish.

Uchinchidan, o'qituvchi kompliment qo'llash lozim bo'lgan mavzular yoki sohalarni oldindan tasdiqlab olishi muhim. Zero, bu turli xil ziddiyatli vaziyatlarning favqulodda yuzaga chiqishiga sabab bo'lmaydi.

To'rtinchidan, "Kompliment halqalarini" qo'llashidan oldin o'qituvchi, albatta, namuna keltirishi, o'quvchilarни mazkur jarayonga ham ruhan, ham ma'nан tayyorlashi kerak.

Beshinchidan, "Kompliment halqalari"ning dastlabki bosqichlarida mavzu o'qituvchi tomonidan tanlansa-da, qolgan davrlarda o'quvchilarning mustaqil va ixtiyoriy tarzda iltifot qilishlari uchun imkoniyat berish va mazkur amaliyotni nazorat qilib borish lozim.

Oltinchidan, "Kompliment halqalari" hech bo'lmasa, haftada ikki marta tashkil etilishi, o'quvchilarga tushuntirilishi kerak bo'lgan mavzular bilan bog'liq bo'lishini ta'minlash dolzarbdir.

Yettinchidan, "Kompliment halqalari" uchun muayyan vaqt va reglament belgilash kerak. "Kompliment halqalari" metodini qo'llashga darsning to'rtdan bir qismini sarflash kifoya (masalan, 80 daqiqalik mashg'ulotning 20 daqiqasi jarayonni muvaffaqiyatli o'tkazib olish uchun yetarli). Umuman olganda, "Kompliment halqalari"ni tashkil etishning dastlabki bosqichlarida asosan quyidagi mavzulardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

References

1. Bach, K. (1999b). The myth of conventional implicature. *Linguistics and Philosophy*, 22, 327-366.
2. Kodirova Kholida Khayriddin kizi. (2022). The Analysis of Illocutionary Acts in Adventures of Tom Sawyer by Mark Twain. *Miasto Przyszłości*, 28, 324–328. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/648>
3. R. Mahan Taylor (Eds.), Teaching pragmatics. Washington DC Office of English
4. Krämer, C. (1993) Context and Culture in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press.
5. Clark, Herbert H., 1996, Using Language. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Rasulov, Z. I. ., & Saidov, K. S. . (2022). Linguistic Economy as an Inseparable Law of Language Evolution. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 8–12. Retrieved from <http://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/28>
7. Sadikov, E. (2022). Noval Teaching Technologies of Pragmatic Speech Acts. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 25(25). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8389
8. Sadikov, E. T. (2021). Teaching pragmatic skills and abilities through activities. ISJ Theoretical & Applied Science, 11(103), 1139-1141.
9. Sadikov Erkin Tursunovich. (2021). IMPLEMENTING AND ASSESSING PRAGMATIC SPEECH ACT DIVERGENCES IN THE ESL CLASSROOM. Eurasian Journal of Academic Research, 1(9), 220–223. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/134>
10. Speech Acts in Context. Marina Sbisà - 2002 - *Language & Communication* 22 (4):421-436.
11. Programs, U.S. Department of State. Retrieved May 30, 2014
12. Nargiza Bobojonova Jumaniyozovna. (2022). Categorization in Modern Linguistics. Miasto Przyszłości, 28, 351–356. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/653>